

# ONLAYN MEDIA TARAQQIYOTI TENDENSIYALARI: MUAMMOS VA YECHIMLAR mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

## INTERNET JURNALISTIKADA FORMAT VA JANR MASALASI

Dilnoza Aminova,  
*O‘zDJTU dosenti, f.f.d (DSc)*  
[nozikdil84@gmail.com](mailto:nozikdil84@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada an’anaviy jurnalistikadan o‘zlashtirilgan an’anaviy janrlar bilan bir qatorda, elektron makonda shakllangan va o‘xshashi bo‘lmagan multimediyaviy va va sintetik janrlar, ularning tasnifi, rivojlanish dinamikasiga doir masalalar tadqiq etilgan. Shuningdek, bir qator olimlarning janrlar tasnifiga oid ilmiy-nazariy qarashlari tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** internet jurnalistika, janr, mul’timediaviy va sintetik janr, blog, mualliflik blogi, onlayn reportaj, onlayn konferensiya.

**Аннотация.** В данной статье наряду с традиционными жанрами, заимствованными из традиционной журналистики, исследуются мультимедийные и синтетические жанры, сформировавшиеся в электронном пространстве и не имеющие аналогов, их классификация, вопросы, связанные с динамикой развития. Также анализируются научно-теоретические взгляды ряда ученых на классификацию жанров.

**Ключевые слова:** интернет-журналистика, жанр, мультимедийный и синтетический жанр, блог, авторский блог, онлайн-репортаж, онлайн-конференция.

**Annotation.** This article, along with traditional genres borrowed from traditional journalism, examines multimedia and synthetic genres that have formed in the electronic space and have no analogues, their classification, and issues related to the dynamics of development. The scientific and theoretical views of a number of scientists on the classification of genres are also analyzed.

**Keywords:** online journalism, genre, multimedia and synthetic genre, blog, author's blog, online report, online conference.

Keyingi yillarda multimedia texnologiyalarining jadal taraqqiyoti kommunikasiya tizimining transformasiyasiga olib keldi. Bu esa, internet jurnalistika sohasining tobora dolzarblashuvi va undagi janr nazariyasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. Endilikda global media makonda an’anaviy janrlar bilan birga, internet jurnalistikaning yangicha janr va formatlari shakllanishiga zamin yaratdi. Bu, o‘z navbatida, ommaviy axborot vositalari tizimida internet medianing ancha faollashuvi, butun dunyo bo‘ylab onlayn nashrlar, bloglar, saytlar sonining keskin oshishi tendensiyasini yaqqol keltirib chiqardi. Mazkur holat nafaqat onlayn nashrlar sonining o‘sishi, balki ularning janrlari va formatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Fikrimizning amaliy tasdig‘i sifatida internet OAVda janrlar tasnifi, davriy nashrlarning janrlari bo‘yicha mutaxassis A.Tertichniy qarashlarini keltirish o‘rinli. U o‘zining “Internet OAVda janrni shakllantirish xususiyatlari” nomli maqolasida quyidagi faktlarni qayd etadi: “Internet OAVda janrlarning taraqqiyoti bo‘yicha ikkita nuqtai nazar mavjud. Birinchi nuqtai nazarga ko‘ra, internet jurnalistikada dastlab an’anaviy janrlardan foydalanilgan” [4; b.172]. Muallif fikricha, internet OAVning ilk shakllanish davrida ular dastlab an’anaviy nashrlarning onlayn ko‘rinishi sifatida

# **ONLAYN MEDIA TARAQQIYOTI TENDENSIYALARI:**

## **MUAMMOS VA YECHIMLAR**

### **mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

yuzaga kelgan va janrlari ham xuddi an’anaviylarniki kabi bo‘lgan. Masalan, A.Kalmikov, L.Koxanova [2; b.123-144] va boshqa olimlar esa tarmoq jurnalistikasida dastlab eslatma, hisobot, intervyu, axborot yozishmalari, blis-so‘rov, savol-javob, reportaj, suhbat, sharh, sosiologik xulosa, anketa, monitoring, reyting, sharh, maqola, fel’eton, pamphlet va boshqa ana’anaviy janrlar guruhlarini keltiradilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, internet OAV nafaqat “an’anaviy”, balki yangi janrlar asosida yaratilgan materiallar bilan boyitilmogda. Mazkur fikrning mantiqiy davomi sifatida tadqiqotchi olim A.Arjanovning qarashini keltirish joiz: “Internet jurnalistika asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Axborotni idrok etishning audio-vizual tabiatiga tobora ko‘proq e’tibor qaratish orqali yangi o‘ziga xos shakllarni yaratish, internetga doir imkoniyatlardan faol foydalanish boshlandi” [1; b. 5-10].

Haqiqatan ham, internet OAV foydalanuvchilari axborotning audio-vizual imkoniyatiga katta ahamiyat berishi - bu bugungi davr talabi. Zero, hozirda material nafaqat katta hajmdagi matn, balki mul’timediaviy elementlarini o‘zida mujassam etgan mahsulot sifatida global tarmoq yuzerlariga taqdim qilinmoqda.

Internet OAV: nazariya va amaliyot kitob muallifi N.G.Loseva esa “an’anaviy jurnalistikadan o‘zlashtirilgan “an’anaviy” janrlar bilan bir qatorda, elektron makonda shakllangan va o‘xshashi bo‘limgan bir qator boshqa OAVning tarmoq janrlari mavjud. Olima ularni “mul’timediaviy va va sintetik janrlar” [5; b.258], deb ataydi. Mazkur janrlar qatoriga muallif blog, mualliflik bloglari, video blog, sharh, foto elementlar, foto reportaj, fotogallereya, slayd-shou, podcast, audio hikoya, audio syujet, video ustun, video syujet, video sharh, audioslayd-shou, interfaol video syujet, multimedialiaviy tok-shou, efirgacha bosqich, jonli efir, efirdan keyingi bosqich, infografika, flesh-o‘yin, multimedialiaviy maqolalarni kiritadi.

IPTK tomonidan onlayn jurnalistika janrlari tizimi ishlab chiqilib, bir qator xorijiy axborot agentliklari tomonidan standart sifatida qabul qilingan janrlar sirasiga esa quyidagilar kiradi:

- *hujjatli material (Actuality)* – voqealari tafsilotlari yozuvi;
- *maslahatlar (Advice)* – tavsiya va maslahatlardan iborat bo‘lib, ko‘pincha o‘quvchilarning xatlariga javoblar shaklida bo‘ladi;
- *voqealar kalendari (Almanac)* – shu kunning tafsilotlari, taniqli shaxslarning tug‘ilgan kunlari, tarixiy ahamiyatga ega sanalarga havolalar;
- *tahlil (Analysis)* - voqealari yoki hodisa haqidagi ma’lumotlarni, shuningdek, masalani chuqr o‘rgangan jurnalist tomonidan chiqarilgan xulosalarni o‘z ichiga oladi;
- *eksklyuziv (Exclusive)* - agentlik tomonidan olingan noyob materialni ko‘rsatadigan belgi;

# **ONLAYN MEDIA TARAQQIYOTI TENDENSIYALARI:**

## **MUAMMO VA YECHIMLAR**

### **mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

- *sharh maqola (Feature)* ko‘pincha dolzarb bo‘lmagan, biroq biron bir masalani yorituvchi material;
- *rejalashtirilgan tadbirlar (Fixture)* – bashorat qilinadigan, muntazam, kutilayotgan voqealar haqida ma’lumot mavjud;
- *bashorat (Forecast)* – bir voqea natijasi haqida fikrni o‘z ichiga oladi;
- *voqea joyidan reportaj (From the Scene)*;
- *tarixiy material (History)* – dolzarb bo‘lmagan, oldingi voqealarga asoslangan material;
- *intervyu (Interview)* – manba bilan muloqot bo‘lib, manbaning so‘zlari muhim ahamiyatga ega;
- *so‘rovnoma (Polls and Surveys)* – raqamli va boshqa shakldagi so‘rovnoma natijalari;
- *press-reliz (Press Release)* – agentlikka taqdim etilgan promomaterial yoki boshqa axborotni o‘z ichiga olgan material;
- *matbuot daydjestlari (Press-Digest)* – nashrlardan parchalar olingan nashriyot materiali;
- *biografik ocherk (Profile)* – biron bir voqea ishtirokchisi faoliyati yoki turmush tarzini bayon etuvchi material;
- *iqtibos (Quote)* – o‘zgarishsiz keltirilgan iqtiboslar;
- *maxsus reportaj (Special Report)* – uzoq jurnalistik surishtiruvni talab etuvchi biror bir narsa yoki voqeaning chuqur tadqiqi;
- *translyasiya yoki stenogramma (Transcript and Verbatim)* – muhim jurnalistik aralashuvisiz yoki ishlov bermasdan munozara yoki nutq;
- *ovoz yozuvi (Voicer)* – biron bir shaxsning ovozli yozuvi [6; b.173-174].

Yuqorida sanab o‘tilgan janrlarning hammasi ham bugungi kunda keng qo‘llanilmayapti. Hozirda ulardan tahlil, eksklyuziv, so‘rovnoma, press-reliz, maxsus reportaj va ovoz yozuvini uchratish mumkin.

“Internet OAV janrlarining o‘ziga xosligi” nomli maqola muallifi A.Safina ham internet jurnalistika janrlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etib, “mualliflik blogi – internet makonida paydo bo‘lgan yangi jurnalistik janrlardan biri. U nafaqat blog hamjamiyatlari, balki media saytlarning sahifalarida ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi” [3; b.228-229], deb qayd etadi. Maqola so‘ngida tadqiqotchi blog tushunchasi, uning istilohiy ma’nosi, Twitter mikroblogi, twitter-reportaj (shahzoda Charlz va Keyt Midltonn to‘y marosimi), onlayn kundaliklar (“Evrovidenie” qo‘sish tanlovi), onlayn konferensiya, onlayn reportaj kabi janrlar borasida ham qiziqarli faktlarni keltirgan.

# **ONLAYN MEDIA TARAQQIYOTI TENDENSIYALARI:**

## **MUAMMOS VA YECHIMLAR**

### **mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

Bugungi kunda internet jurnalistika sohasida ham an’anaviy ham yangi janrlarni kuzatish mumkin. Internet makonida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, madaniy masalalarini yorituvchi turli bloglar, mualliflik bloglari ancha keng tarqalgan janrlar sirasiga kiritish mumkin. Ta’kidlash joizki, xorijda har bir gazetaning alohida blogi borligi diqqatga sazovor. Mahalliy yetakchi axborot kanallari (kun.uz, daryo.uz, qalampir.uz va boshqalarda) materiallar tahlili natijasida onlayn konferensiya va onlayn reportajlardan unumli foydalangani aniqlandi.

Internet jurnalistikada format va janr masalasi tahlili quyidagicha xulosalash mumkin:

Birinchidan, 2010 yildan keyingi davrda onlayn nashrlar asta-sekin rivojlana boshlagan. Aynan o’sha paytda internet jurnalistikada ko‘proq “an’anaviy” janrlardan foydalanish tendensiyasi kuztilgan;

Ikkinchidan, oxirgi o’n yillikda esa internet jurnalistikaning yangi janrlari shakllangan;

Uchinchidan, internet OAVda onlayn reportaj, onlayn konferensiya, blog, audio va video bloglar, mualliflik bloglari kabi janrlar ustunlik qilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Аржанов А.П. Субъективное начало в жанрах Интернет – журналистики // Жанровые метаморфозы в российской журналистике. Тезисы IV Всероссийской научно – практической конференции / Самара, 18 -19 марта 2010 г. Самара: ПортоПринт, 2010. –С.5-10.
2. Калмыков А. А., Коханова Л. А.Интернет-журналистика. –М.: Юнити-дана, 2005. –С.123-144.
3. Сафина А. Особенности жанров Интернет-СМИ // Известия Самарского научного центра Российской академии наук, т. 15, №2, 2013. –С.228-229.
4. Тертычный А. Особенности жанрообразования в Интернет-СМИ // НАУЧНЫЕ ВЕДОМОСТИ. Серия Гуманитарные науки. 2013. № 6 (149). Выпуск 17. –С.172.
5. Тертычный А.А. Жанры периодической печати. М.: Аспект Пресс, 2000.– С.258.
6. Тертычный А. Особенности жанрообразования в Интернет-СМИ // НАУЧНЫЕ ВЕДОМОСТИ. Серия Гуманитарные науки. 2013. № 6 (149). Выпуск 17. –С.173-174.